

Mirzo Bobur xotirasiga hurmat bajo keltirildi

// 14.02.2024

<https://uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/mirzo-bobur-xotirasiga-hurmat-bajo-keltirildi>



Zahiriddin Muhammad Bobur - nafaqat o'zbek mumtoz adabiyotida, balki jahon adabiyotida ham o'z o'rniga ega bo'lgan buyuk shoirlarimizdan biri. Qisqa umri davomida u nasr va nazmda ham birdek asarlar bitib, barakali ijod qilgan. Uning tarixchi olim, zukko adib va dilbar shoir sifatida qoldirgan adabiy merosi bebahodir. Uning birgina "Boburnoma" yirik asari dunyoning ko'plab tillariga tarjima qilingan va bu ishlar hamon davom etmoqda.

Bugun 14-fevral - buyuk shoh va shoir tavalludining 541 yilligi munosabati bilan "O'zkiyosanoat" AJ xodimlari Adiblar xiyobonida shoh va shoir Mirzo Bobur haykali poyiga gulchambar qo'yishdi. Uning yorqin xotirasiga hurmat bajo keltirildi.

Shuningdek, shoirning hayoti va ijodi haqida yig'ilganlarga ma'lumotlar berildi. Yoshlar tomonidan uning ijodidan g'azal va ruboiylar ijro etildi.